

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	



GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Davlatova Nilufar Avazovna,
Osiyo xalqaro universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0006-0890-0451

Annotatsiya: So'nggi yillarda jahon moliya bozorlarida beqarorlik darajasi sezilarli darajada oshdi: geosiyosiy ziddiyatlar, energiya narxlaridagi keskin o'zgarishlar va yetakchi markaziy banklarning pul-kredit siyosatidagi tebranishlar kapital oqimlarining o'zgaruvchanligini kuchaytirmoqda. Ushbu maqolada global moliyaviy beqarorlikning O'zbekiston milliy valyutasi — so'm kursi barqarorligiga ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot 2024–2026-yillardagi valyuta kursi dinamikasi, asosiy stavka, inflyatsiya, xalqaro zaxiralar va tashqi qarz ko'rsatkichlari misolida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qat'iy pul-kredit siyosati, oltin zaxiralarining yuqori ulushi va pul o'tkazmalarining barqaror oqimi milliy valyutani tashqi shoklardan muayyan darajada himoya qilmoqda, biroq o'sib borayotgan tashqi qarz va tashqi bozorlarga qaramlik zaiflik manbai bo'lib qolmoqda. Maqola yakunida valyuta barqarorligini mustahkamlash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: global moliyaviy beqarorlik, milliy valyuta, so'm kursi, markaziy bank, valyuta zaxiralari, tashqi qarz, pul-kredit siyosati.

Аннотация: За последние годы уровень нестабильности на мировых финансовых рынках значительно возрос: геополитические конфликты, резкие колебания цен на энергоносители и изменения в денежно-кредитной политике ведущих центральных банков усиливают волатильность потоков капитала. В статье анализируются механизмы воздействия глобальной финансовой нестабильности на устойчивость национальной валюты Узбекистана. Исследование основано на динамике валютного курса, основной ставке, инфляции, международных резервах и внешнем долге за 2024–2026 годы. Результаты показывают, что жёсткая денежно-кредитная политика, высокая доля золота в резервах и устойчивый приток денежных переводов в определённой степени защищают национальную валюту от внешних шоков, однако растущий внешний долг и зависимость от внешних рынков остаются источником уязвимости. В заключение сформулированы конкретные предложения по укреплению валютной стабильности.

Ключевые слова: глобальная финансовая нестабильность, национальная валюта, курс сума, центральный банк, валютные резервы, внешний долг, денежно-кредитная политика.

Abstract: In recent years, the level of instability in global financial markets has increased markedly: geopolitical conflicts, sharp swings in energy prices, and shifts in the monetary policy of leading central banks have amplified the volatility of capital flows. This article analyses the mechanisms through which global financial instability affects the stability of Uzbekistan's national currency, the sum. The study is based on exchange-rate dynamics, the policy rate, inflation, international reserves and external-debt indicators for 2024–2026. The findings show that a tight monetary policy stance, a high share of gold in reserves, and steady remittance inflows have provided the national currency with a measure of protection against external shocks, while rising external debt and dependence on external markets remain sources of vulnerability. The article concludes with concrete proposals for strengthening currency stability.

Keywords: global financial instability, national currency, sum exchange rate, central bank, foreign reserves, external debt, monetary policy.

KIRISH

So'nggi ikki-uch yil ichida jahon moliya tizimi bir necha yirik shoklarni boshdan kechirdi: savdo tarifi siyosatidagi keskin o'zgarishlar, yetakchi markaziy banklarning pul-kredit siyosati traektoriyasidagi noaniqlik va, ayniqsa, 2026-yil boshida Yaqin Sharqda boshlangan qurolli mojaro energiya va oziq-ovqat bozorlarida jiddiy narx zarbalarini keltirib chiqardi. Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki hisobotlariga ko'ra,



ushbu voqealar global iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga, inflyatsiya kutilmalarining oshishiga va moliyaviy shartlarning qattiqlashuviga olib keldi. Bunday sharoitda kichik ochiq iqtisodiyotlar, xususan, O'zbekiston, tashqi savdo, kapital oqimlari va valyuta bozori orqali global beqarorlikning bevosita ta'siriga duch kelmoqda.

Milliy valyuta kursi barqarorligi nafaqat narxlar barqarorligining, balki umuman iqtisodiy xavfsizlikning muhim shartlaridan biridir: uning keskin tebranishi import inflyatsiyasini kuchaytiradi, tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiradi va aholi hamda tadbirkorlarning moliyaviy rejalashtirish qobiliyatini pasaytiradi. Shu sababli global moliyaviy beqarorlik kanallarining so'm kursiga ta'sir mexanizmlarini tushunish amaliy va nazariy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — global moliyaviy beqarorlikning O'zbekiston milliy valyutasi barqarorligiga ta'sir etish mexanizmlarini aniqlash va milliy iqtisodiyotning bunday tashqi shoklarga bardoshlligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti — O'zbekistonning valyuta-kredit tizimi, predmeti esa global moliyaviy omillarning so'm kursi, inflyatsiya va zaxiralar dinamikasiga ta'sir kanallaridir. Vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi: valyuta barqarorligi nazariyalarini tahlil qilish; 2024–2026-yillardagi kurs, stavka, zaxira va tashqi qarz ko'rsatkichlarini o'rganish; hamda milliy valyutani mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Valyuta kursi siyosati va tashqi moliyaviy beqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyada R. Mundellning mashhur "mumkin bo'lmagan uchlik" (impossible trinity) konseptsiyasiga borib taqaladi: mamlakat bir vaqtning o'zida erkin kapital harakati, barqaror valyuta kursi va mustaqil pul-kredit siyosatini saqlab qola olmaydi [1]. H. Rey tomonidan ishlab chiqilgan "global moliyaviy sikl" nazariyasi bu g'oyani yanada rivojlantirib, hatto suzuvchi valyuta kursi rejimida ham milliy pul-kredit siyosatining mustaqilligi AQSh Federal zaxira tizimining siyosati va xalqaro investorlarning tavakkalchilikka nisbatan munosabati bilan cheklanishini ko'rsatadi [2]. Bu nazariya rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

G. Calvo tomonidan ishlab chiqilgan "kutilmagan to'xtash" (sudden stop) nazariyasi kapital oqimlarining keskin qaytishi rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta va to'lov balansi inqirozlarini keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatadi, bunda yuqori tashqi qarz va past valyuta zaxiralari zaiflik omili sifatida namoyon bo'ladi [3]. Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining so'nggi hisobotlari global moliyaviy shartlarning qattiqlashuvi, ayniqsa energiya narxlaridagi keskin o'sish, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda inflyatsiya va valyuta bosimini kuchaytirishini empirik jihatdan tasdiqlaydi [4, 5]. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda O'zbekiston so'mining 2025–2026-yillardagi nisbiy barqarorligi aynan hozirgi global moliyaviy shok kontekstida tizimli tahlil qilinmagan, bu esa ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024–2026-yillardagi rasmiy matbuot xabarlari va valyuta kurslari statistikasi, Xalqaro valyuta fondining Jahon iqtisodiy istiqbollari (World Economic Outlook) va O'zbekiston bo'yicha IV modda konsultatsiyasi materiallari, shuningdek Jahon bankining Global iqtisodiy istiqbollar va Tovar bozorlari istiqbollari hisobotlaridan foydalanildi. So'm kursi, asosiy stavka, inflyatsiya, xalqaro zaxiralar va tashqi qarz ko'rsatkichlari vaqt qatorlari tarzida tahlil qilinib, ularning global moliyaviy voqealar (xususan, 2026-yildagi Yaqin Sharq mojarosi) bilan uyg'unligi baholandi. Kontent-tahlil usuli yordamida Markaziy bank rahbariyatining valyuta siyosati bo'yicha rasmiy bayonotlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global moliyaviy beqarorlikning zamonaviy ko'rinishlari. 2026-yil aprel oyida Yaqin Sharqda boshlangan qurolli mojaro so'nggi yillardagi eng yirik energiya taklifi shokini keltirib chiqardi: Jahon bankining bahosiga ko'ra, energiya narxlari 2022-yildagi Rossiya-Ukraina mojarosidan beri eng yuqori darajaga — taxminan 24 foizga oshdi [8]. Natijada Xalqaro valyuta fondi global iqtisodiy o'sish prognozini 2026-yil uchun 3,3 foizdan 3,1 foizgacha pasaytirdi, global inflyatsiya esa 4,4 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda [4]. Jahon banki o'zining iyun oyidagi hisobotida global o'sishning 2025-yildagi 2,9 foizdan 2026-yilda 2,5 foizgacha sekinlashishini, bu esa rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun ayniqsa og'ir bo'lishini ta'kidladi [5]. Bunday sharoitda moliyaviy shartlarning qattiqlashuvi va kapital oqimlarining o'zgaruvchanligi kichik ochiq iqtisodiyotlar valyutalariga bosim o'tkazuvchi asosiy kanalga aylanmoqda.



So'm kursi dinamikasi va uning barqarorlik omillari. Global beqarorlikka qaramay, O'zbekiston so'mi 2025-yilda dollarga nisbatan 6,9 foizga mustahkamlandi — bu eksport tushumlari, xorijiy kreditlar va pul o'tkazmalari hisobiga ichki valyuta bozorida xorijiy valyuta taklifining barqaror bo'lishi bilan izohlanadi [7]. 2026-yil sentyabr holatiga rasmiy kurs taxminan 11 820 so'm/dollarni tashkil etib, iqtisodchilarning bahosiga ko'ra, yil bo'yicha o'rtacha kurs 11 987 so'm atrofida shakllanishi kutilmoqda [9]. Markaziy bank raisi Timur Ishmetovning ta'kidlashicha, valyuta kursi rejimi moslashuvchan bo'lib qolaveradi va kapital harakatini liberallashtirish jarayoni davom ettiriladi, bu esa investorlarning so'mda denominatsiyalangan moliyaviy vositalarga ishonchini oshirmoqda [9].

Pul-kredit siyosati va inflyatsiya. Markaziy bank 2026-yil davomida asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab, qat'iy pul-kredit siyosatini davom ettirmoqda, bu inflyatsiyani o'rtamuddatli istiqbolda 5 foizlik maqsadga tushirishga qaratilgan [6, 7]. Xalqaro valyuta fondining 2026-yil aprel oyidagi hisobotiga ko'ra, 2025-yil oxiriga umumiy inflyatsiya 9,8 foizdan 7,3 foizgacha sekinlashdi, buning asosiy sabablari orasida so'mning dollarga nisbatan mustahkamlanishi va energiya narxlarini oshirishining so'nggi ta'sirining pasayishi ko'rsatilgan [6]. Shunga qaramay, 2026-yilda Yaqin Sharqdagi mojar o tufayli yuqori jahon energiya narxlarini hisobiga inflyatsiya Markaziy bank maqsadidan yuqori bo'lib qolishi kutilmoqda [6].

Xalqaro zaxiralar va tashqi qarz — himoya va barqarorlik omillari. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning xalqaro zaxiralari taxminan 13 oylik import hajmini qoplashga yetarli bo'lib, bu rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari orasida nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi [6]. Zaxiralarning katta qismi — taxminan 85–88 foizi — oltindan iborat bo'lib, jahon oltin narxlarining yuqori bo'lishi zaxiralar hajmini qo'shimcha oshirmoqda. Shu bilan birga, tashqi qarz 2025-yilda 18 milliard dollarga o'sib, 82 milliard dollardan oshdi, yil oxiriga kelib esa deyarli 90 milliard dollarga yetdi [10]. Tashqi qarz hajmining ortishi, ayniqsa global moliyaviy shartlar qattiqlashgan sharoitda, iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, tashqi moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda — bu Calvo nazariyasida ta'kidlangan "kutilmagan to'xtash" xavfini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Milliy valyutada moliyalashtirishning kengayishi. So'nggi yillarda Moliya vazirligi davlat qarzini jalb qilishda milliy valyutadagi qimmatli qog'ozlar ulushini bosqichma-bosqich oshirib bormoqda, bu esa valyuta kursi tebranishlaridan kelib chiqadigan risklarni kamaytirishga xizmat qiladi [9]. Investorlarning so'mda denominatsiyalangan vositalarga qiziqishining ortishi past inflyatsiya va barqaror valyuta kursini uzoq muddatli davrda saqlab qolish borasidagi ishonchning shakllanayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2026-yildagi global moliyaviy beqarorlik — Yaqin Sharqdagi mojar o, energiya narxlarining keskin o'sishi va jahon o'sish sur'atlarining sekinlashishi — sharoitida O'zbekiston so'mi nisbatan barqarorligini saqlab qoldi. Bunga qat'iy pul-kredit siyosati, yuqori valyuta zaxiralari, oltinning zaxiralardagi ulushi va pul o'tkazmalarining barqaror oqimi asosiy hissa qo'shdi. Shu bilan birga, tashqi qarzning ortishi va iqtisodiyotning tashqi bozorlar konyunkturasiga sezilarli darajada integratsiyalashuvi milliy valyuta barqarorligini qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy faollikni ta'minlash uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xalqaro zaxiralar tarkibini diversifikatsiya qilish, oltinga bog'liqlikni kamaytirib, boshqa likvid aktivlar ulushini oshirish;
2. Tashqi qarzni boshqarish tizimini kuchaytirish, yangi qarz olishda valyuta va muddat tarkibini ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish, imtiyozli xorijiy kreditlar ulushini ustuvor saqlash;
3. Davlat qarzini milliy valyutada moliyalashtirish ulushini yanada oshirish orqali kurs riskini kamaytirish;
4. Ichki moliyaviy bozorni chuqurlashtirish va so'mdagi moliyaviy vositalar assortimentini kengaytirish orqali dollarlashuv darajasini yanada pasaytirish;
5. Global moliyaviy shoklarni erta aniqlash va ularga javob choralarini tezkor ishlab chiqish imkonini beruvchi makroiqtisodiy monitoring va ogohlantirish tizimini takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekiston milliy valyutasining global moliyaviy beqarorlik sharoitida barqarorligini mustahkamlab, makroiqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mundell, R.A. (1963). Capital mobility and stabilization policy under fixed and flexible exchange rates. Canadian Journal of Economics and Political Science, 29(4), 475–485.



2. Rey, H. (2013). Dilemma not trilemma: The global financial cycle and monetary policy independence. NBER Working Paper No. 21162 (Jackson Hole Economic Policy Symposium).
3. Calvo, G.A. (1998). Capital flows and capital-market crises: The simple economics of sudden stops. *Journal of Applied Economics*, 1(1), 35–54.
4. International Monetary Fund. (2026). *World Economic Outlook*, April 2026: Global Economy in the Shadow of War. Washington, D.C.: IMF.
5. World Bank Group. (2026). *Global Economic Prospects*, June 2026. Washington, D.C.: World Bank.
6. International Monetary Fund. (2026). *Uzbekistan: Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission*. Washington, D.C.: IMF.
7. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). Press release on the main rate decision, 18 March 2026. Tashkent: CBU.
8. World Bank Group. (2026). *Commodity Markets Outlook*, April 2026. Washington, D.C.: World Bank.
9. *Gazeta.uz*. (2026). «Мы больше не хотим играть с курсом». Глава Центробанка о валютной политике Узбекистана. Tashkent.
10. *Spot.uz*. (2026). В 2025 году совокупный внешний долг Узбекистана вырос на \$18 млрд — до \$82 млрд. Tashkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>